

**UDK: 616.832-004.208**

## **TARQOQ SKLEROZ BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KOGNITIV BUZILISHLARNI O'RGANISH**

**Azimova Nodira Mirvosidovna**

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti

ToshPTI nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiyot genetikasi kafedrası

**Ibodulloyeva Maftuna baxtiyor qizi**

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti

ToshPTI nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiyot genetikasi kafedrası

### **ANNOTATSIYA**

Tarqoq skleroz kasalligida nerv tolalarining demiyelinizatsiyasi natijasida nafaqat harakat funksiyalarida balki, kognitiv funksiyalarda ham jiddiy buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu maqolada bemorlardagi oliy ruhiy funksiyalar bir qancha testlar yordamida sog'lom odamlar bilan solishtirib tekshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarqoq skleroz, kognitiv funktsiya, ish qobiliyati, hayot sifati

### **АННОТАЦИЯ**

В результате демиелинизации нервных волокон при рассеянном склерозе могут возникать серьезные нарушения не только двигательных, но и когнитивных функций. В данной статье исследованы высокие психические функции у больных с помощью серии тестов по сравнению со здоровыми людьми.

**Ключевые слова:** рассеянный склероз, когнитивная функция, трудоспособность, качество жизни.

### **ANNOTATION**

As a result of demyelination of nerve fibers in multiple sclerosis, serious disturbances can occur not only in motor functions but also in cognitive functions. In this article, high mental functions in patients were examined using a series of tests compared with healthy people.

**Keywords:** multiple sclerosis, cognitive function, ability to work, quality of life

**Aktualligi.** Tibbiyotning asosiy maqsad va vazifasi bemorlar salomatligi haqida qayg‘urish, kasalliklarga erta tashhis qo‘yish va davolash. Har bir kasallik o‘ziga xos kechishga ega bo‘lib, u yoki bu funksiyalarni ma‘lum darajada yoki butunlay izdan chiqaradi. Hozirgi kun tibbiyotida aktual muammoga aylanib borayotgan Tarqoq skleroz- markaziy nerv sistemasining surunkali autoimmun- neyrodegenerativ kasalligi bo‘lib, mehnatga layoqatli, yosh aholi qatlamida hayot sifati va ish qobiliyatini pasayib ketishiga sababchi bo‘ladigan nerv sistemasining organik kasalliklaridan biridir. Tarqoq sklerozning Osiyo qit‘asi mamlakatlari shu jumladan O‘zbekistonda ham ko‘p uchrayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, kasallikni bizning mamlakatda kechish xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalaga aylanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Tarqoq sklerozda aksonlarning demiyelinizatsiyasi sababli yuzga keladigan o‘zgarishlar oliy ruhiy faoliyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shuning uchun oxirgi yillarda butun dunyoda tarqoq skleroz bilan kasallangan bemorlarda kognitiv funksiyalarning buzilishini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

**Maqsad.** Tarqoq skleroz bilan kasallangan bemorlarda kognitiv funksiyalarni tekshirish

**Material va metodlar.** Asosiy guruhga O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llar markaziy kasalxonasi, O‘zbekiston Respublikasi nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, “Neyromed”, “Reatsentr Toshkent”, “Asab va Ruhiyat” klinikalaridan 2 yil mobaynida 18 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan 40 ta bemor o‘rganildi. Bemorlardan 28 tasi (70%) ayol, 12 tasi (30%) erkak. Bunda ishtirok etgan bemorlar o‘rtacha yoshi 37,4 yoshni tashkil etdi. Kuzatuv guruhida 20 ta 20 yoshdan 50 yoshgacha o‘rtacha 35,8 yoshni tashkil etgan sog‘lom insonlar o‘rganildi. Bunda ishtirok etgan bemorlarning 9 tasini erkaklar (45%), 11 tasi ayollar (55%)ni tashkil qildi.

### **Tekshiruv usullari**

Umumiy klinik tekshiruv

Umumiy klinik tekshiruv umumiy qabul qilingan metodlar bilan o‘tkazildi: shikoyatlar, kasallik anamnezini o‘rganish ( kognitiv buzilishlarga olib keluvchi boshqa kasalliklarni inkor etgan holda), yondosh kasalliklar mavjudligi, nevrostatus baholandi.

Laborator tekshiruvlar

Qon va siydik umumiy va biokimyoviy tahlili o‘tkazildi

Funksional- diagnostik tekshiruvlar

MRT tekshiruvlari xulosasi olindi

Psixik statusni MMSE shkalasi (1-jadval) yordamida o‘rganildi. Natijalar 2- jadvalda keltirilgan.

### MMSE -test

Sinov	Baho (ball)
Vaqtga orientirovka (Yil, oy, hafta kuni, bugungi sana, fasllarni ayting)	0-5
Joyga orientirovka ( biz qayerda turibmiz : mamlakat, biloyat, tuman, shahar, klinika nomi, etaj)	0-5
Idrok: Quyidagi uch so‘zni takrorlang: qalam, uy, pul	0-3
Diqqatni jamlash: Seriya hisoblash (100 dan 7 ni ayirsak, so‘ng yana 7 ni ayirsak, jami 5 marta ayirsak)	0-5
Xotira: Yuqoridagi uch so‘zni takrorlang	0-3
Nutq: Ruchka va soatni ko‘rsatib so‘raymiz; “bu nima deb nomlanadi”	0-2
Iltimos jumlaning takrorlang “ yoq, va yoki lekin”	0-1
Uch etapli komandani bajarish: O‘ng qo‘lingiz bilan qog‘ozni oling, uni ikkiga buklang va stol ustiga qo‘ying	0-3
O‘qish: O‘qing va bajaring: ko‘zingizni yuming taklif yozing rasm chizing (teng burchakli ikkita kesishgan beshburchak)	0-3
Umumiy ball	0-30

1-jadval

Test natijalarini baholash:

28-30 ball kognitiv buzilish yo‘q

24-27 ball demensiya oldi kognitiv buzilishlar

20-23 ball engil darajada namoyon bo‘lgan demensiya

1-19 ball o‘rta darajadagi demensiya

0-10 ball og‘ir darajadagi demensiya

			O‘rtacha
1-guruh	Ayollar	17-25 ball	19,8
	Erkaklar	18-25 ball	23,2
2-guruh	Ayollar	23-29 ball	26,7
	Erkaklar	21-29 ball	26,1

**2-jadval**

Peshona disfuksiyasini FAB testi orqali aniqlandi. Bunda bemorlarni konsentratsiyasi, so‘z boyligi, dinamik praksis, tanlovning oddiy reaksiyasi, tanlovning shartli reaksiyasi, ushlab olish reflekslari 0-3 ball chegarasida baholandi. FAB testidagi eng yuqori ball 18 ballni tashkil qilib, baholash nisbiy amalga oshiriladi. Quyida birinchi (3-jadval) va ikkinchi (4-jadval)guruh test natijalari keltirilgan.

Yoshi	Ayollar	Erkaklar	O‘rtacha
18-25 yosh	15-17	16-17	16,2
26-35 yosh			14,8
35-50 yosh	11-17	10-16	
	9-16	12-15	12,3
O‘rtacha	13,9	14,6	14,5

**3-jadval**

Yoshi	Ayollar	Erkaklar	O‘rtacha
18-25 yosh	16-118	16-18	17,3
26-35 yosh		13-	15,9
	14-18	17	
35-50 yosh		12-	
	12-16	16	14,8
O‘rtacha	15,4	16,3	16,4

**4-jadval**

## NATIJALAR

Asosiy guruhdagi bemorlarning MMSE shkalasi natijalari ayollar va erkaklarda farq qilib 19,8-23,2 oralig'ida, o'rtacha 21,5 ballni tashkil etdi (2-jadval). FAB testi natijalari 9-17 oralig'ida bo'lib, o'rtacha 14,5 ballni tashkil etdi (3-jadval).

Kuztuv guruhdagilar psixik statusini o'rganish natijalari 21-29 oralig'ida o'rtacha 26,6 ball (2-jadval). Peshona disfuksiyasini o'rganish natijalari 12-18 oralog'ida bo'lib, o'rtacha 16,4 ballni tashkil etdi (4-jadval).

## XULOSALAR

1. Kuztuvlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, tarqoq skleroz bilan kasallangan bemorlarda demiyelinizatsiya sababli neyronlar fuksiyasining buzilishi va buning oqibatida asotsiatsiya buzilishlari kognitiv funksiyalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2. Bemorlardagi oliy ruhiy funksiyalarning buzilishi bemorlarning yoshi va kasallik davomiyligiga ham bog'liq bo'lib, tadqiqotda bemorlarda yosh bo'yicha ko'rsatkichlar farq qildi.

3. Bundan ko'rinib turibdiki kasallik bilan kurashda oliy ruhiy funksiyalarni ham yaxshilashga qaratilgan davo muolajalarini tavsiya etishni e'tiborsiz qoldirmaslik lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Е. И. Гусев, Т. Л. Демина. Рассеянный склероз. Кафедра неврологии и нейрохирургии (зав. — акад. РАМН, проф. Е. И. Гусев) РГМУ, Мос
2. 24.Гусев Е.И., Демина Т.Л. Рассеянный склероз // ConsiliumMedicum : 2000. — № 2.
3. Jeffery ND, Blakemore WF. Locomotor deficits induced by experimental spinal cord demyelination are abolished by spontaneous remyelination. Brain. 1997 Jan;120(Pt 1):27–37.
4. Ibodullayev Z.R. Asab kasalliklari. (2-nashr) Darslik. – T.: 2014. 1000 b.
5. Imaizumi T, Lankford KL, Waxman SG, Greer CA, Kocsis JD. Transplanted olfactory ensheathing cells remyelinate and enhance axonal conduction in the demyelinated dorsal columns of the rat spinal cord. J Neurosci. 1998 Aug 15;18(16):6176–6185.

6. Langer-Gould A., Popat R. A., Huang S. M. et al. Clinical and Demographic Predictors of Long-term Disability in Patients With Relapsing-Remitting Multiple Sclerosis // Arch. Neurol. - 2006. - Vol. 63, № 12. - P. 1686-1691.
7. Marrie R., Horwitz R., Cutter G. et al. Comorbidity, socioeconomic status and multiple sclerosis // Mult. Scler. - 2008. - Vol. 14, № 8. - P. 1091-1098. <https://doi.org/10.1177/1352458508092263>.